

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Quyidagilardan qaysi biri O'zbekistonning eng janubida joylashgan tog' hisoblanadi?

- A) Oqtog' B) Qurama C) Zarafshon D) Bobotog'

2. O'zbekistonda Isroil bilan hamkorlikda paxta teradigan mashinaning yangi modeli qachon yaratilgan?

- A) 2000-y. B) 1994-y. C) 1998-y. D) 1992-y.

3. Quyidagi qaysi olim tuzgan xaritada Nil va Ra daryolari tasvirlangan?

- A) Ptolemey B) Xorazmiy C) Beruniy D) Nosir Xisrav

4. Korsika oroli qaysi davlatga tegishli?

- A) Italiya B) Gretsiya C) Ispaniya D) Fransiya

5. Qorako'l qo'ylari Mirzacho'l iqtisodiy rayonining qaysi qismida boqiladi?

- A) Sharqida B) Shimoli-g'arbida C) Markazi va janubida D) Janubida

6. Quyidagi qaysi davlat iqtisodiyoti eng qoloq agrar mamlakatlardan biri hisoblanadi?

- A) Vyetnam B) Bangladesh C) Shri Lanka D) Laos

7. Qaysi tog' tizmasi Antarktidani ikki qismga ajratib turadi?

- A) Erebus B) Transantarktida C) Desepshen D) Berlin

8. Quyidagi qaysi shahar nisbatan shimolroqda joylashgan?

- A) Koson B) Kogon C) Kattaqo'rg'on D) Samarqand

9. Kimyo va neft-kimyo mashinasozligi korxonasi respublikamizning qaysi shahrida joylashgan?

- A) Chirchiq B) Samarqand C) Qorovulbozor D) Andijon

10. Quyidagi xarita-sxemada 4 raqami bilan qaysi dengiz ko'rsatilgan?



- A) Liguriy B) Adriatika C) Tirren D) Ioniya



**2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi**

**11. Kumtor oltin koni qaysi tog'da joylashgan?**

- A) Markaziy Tyanshan      B) Janubiy Tyanshan      C) Otboshi      D) Saur

**12. Abiskun dengizi qaysi materikda joylashgan suv havzasining qadimgi nomi hisoblanadi?**

- A) Afrika      B) Shimoliy Amerika      C) Yevrosiyo      D) Avstraliya

**13. Yevropadagi kichik rivojlangan mamlakatlar qaysi variantda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Belgiya, Avstriya, Shvetsiya      B) Lyuksemburg, Belgiya, Italiya  
C) Polsha, Norvegiya, Daniya      D) Shveysariya, Serbiya, Niderlandiya

**14. Quyidagi milliy bog'lardan qaysilari Shimoliy Amerikada joylashgan? 1. Jasper; 2. Yosemite; 3. Manu; 4. Sekvoiya; 5. Parakas; 6. Vud-Buffalo.**

- A) 1, 2, 3, 4      B) 2, 4, 5, 6      C) 2, 3, 5, 6      D) 1, 2, 4, 6

**15. Quyidagi qaysi geografik obyekt Past Afrikada joylashgan emas?**

- A) Tubkal tog'i      B) Darfur platosi      C) Kattara botig'i      D) Assal ko'li

**16. Quyidagi qaysi shaharlarda paxta tozalash hamda yog' sanoati uchun mashina va uskunalar ishlab chiqaruvchi zavodlar joylashgan?**

- A) Toshkent, Qo'qon, Jizzax, Namangan      B) Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz  
C) Toshkent, Farg'ona, Navoiy, Andijon      D) Toshkent, Andijon, Samarqand, Kattaqo'rg'on


**17. Agar yillik yog'in miqdori 300 mm, mumkin bo'lgan bug'lanish esa 1000 mm ga teng bo'lsa, namlik koeffitsiyentini aniqlang.**

- A) 0,21      B) 1,32      C) 2,1      D) 0,3

**18. Quyidagi qaysi mamlakat ichimlik suvini Malayziyadan import qiladi?**

- A) Indoneziya      B) Singapur      C) Vyetnam      D) Xitoy

**19. Quyidagi rasmda qanday relyef shakli aks ettirilgan?**



- A) Botiq      B) Tepalik      C) Yassitog'lik      D) Cho'qqi

**20. Yarimorolda joylashgan davlatlar to'g'ri berilgan qatorni belgilang. 1) Yaponiya; 2) Norvegiya; 3) Ispaniya; 4) Shri-Lanka; 5) Vyetnam; 6) Koreya Respublikasi; 7) Islandiya; 8) Kuba; 9) Italiya.**

- A) 2, 4, 6, 7, 9      B) 2, 3, 5, 6, 9      C) 1, 4, 5, 6, 8      D) 1, 3, 5, 7, 8




**3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi**

**21. Termometr tog' cho'qqisida havo harorati  $-10^{\circ}\text{C}$ , xuddi shu paytda uning dengiz bo'yida joylashgan etagida havo harorati  $+14^{\circ}\text{C}$  ga teng ekanligini ko'rsatdi. Tog'ning mutlaq balandligini aniqlang.**

- A) 3000 m      B) 3500 m      C) 4000 m      D) 4500 m

**22. Terrigen yotqiziqalar ko'p to'planadigan joylar rasmda qaysi harflar bilan belgilangan?**




- A) D, A      B) F, B      C) G, F      D) J, B

**23. O'rta okean tizmalarining uzunligidan 150 marta qisqa masofa necha gradus meridian yoyining uzunligiga teng?**

- A)  $4,2^{\circ}$       B)  $3,6^{\circ}$       C)  $3,1^{\circ}$       D)  $2,8^{\circ}$

**24. Quyidagi qaysi orol vujudga kelishiga ko'ra rasmda tasvirlangan tipga xos emas?**



- A) Gavayi      B) Pasxa      C) Mariana      D) Tasmaniya

**25.  $10^{\circ}$ – $20^{\circ}$  janubiy kengliklar oralig'ida joylashgan poytaxt shaharlarni aniqlang.**

- A) Vindxuk, Jakarta, Lilongve, Kito, Singapur      B) Antananarivu, Lima, Lusaka, Braziliya, Xarare  
C) La-Pas, Asunson, Santyago, Maputu, Kigali      D) Luanda, Dili, Montevideo, Lusaka, Maseru

**26. Okeanlar va ularga tegishli dengizlar mos ravishda berilgan javobni aniqlang.**

№	Okean nomi	Belgilanishi	Dengizlar nomi
1	Tinch okean	a	Skosh, Ueddell, Lazarev
2	Atlantika okeani	b	Chukotka, Bofort, Baffin
3	Hind okeani	c	Ross, Amundsen, Bellinsgauzen
4	Shimoliy Muz okeani	d	Hamdo'stlik, Kosmonavtlar, Riser-Larsen

- A) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b      B) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b      C) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d      D) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d



27. Quyidagi xarita-sxemada 1, 8, 2 raqamlari bilan qaysi gidrografik obyektlar ko'rsatilgan?




- A) Azov, Apsheron, Adan  
B) Egey, Ioniya, Sidra  
C) Kaspiy, Kerch, Adan  
D) Kaspiy, Bob-al-Mandob, Azov

28. Sulina shahri  $45^{\circ}$  shimoliy kenglik,  $29^{\circ}$  sharqiy uzoqlikda joylashgan. Shahardan Janubiy qutbgacha bo'lgan masofani kilometr hisobida aniqlang.

- A) 14 998,5 km  
B) 4 999,5  
C) 9 999 km  
D) 1 914,5 km

29. Quyidagi grafikdan foydalanib, soat 17:30 dagi havo harorati va atmosfera hodisasini aniqlang.



- A)  $+17^{\circ}\text{C}$ , shabada  
B)  $+20^{\circ}\text{C}$ , jala  
C)  $+23^{\circ}\text{C}$ , bulut  
D)  $+22^{\circ}\text{C}$ , yomg'ir

30. Gipsli cho'llar tarqalgan hududlarni belgilang. 1) Orolbo'yi Qoraqumi; 2) Ustyurt; 3) Qorsoqboy; 4) Mo'yinqum; 5) Betpaqdala; 6) Mang'ishloq; 7) Keles tekisligi.

- A) 1, 2, 3, 4  
B) 1, 2, 5, 7  
C) 2, 3, 5, 6  
D) 2, 3, 4, 6

